

## Talaba – yoshlarning innovatsion g'oyalari

“O'zagrosanoat – xolding” aksiyadorlik jamiyati raisi ilmiy maslahatchisi, akademik R.D.Matchonov joriy yilning 3 mart kuni “Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakultetiga tashrif buyurdi.

Akademik R.D.Matchonov fakultet talaba – yoshlari uchun “Qishloq xo'jaligi mashinasozligining bugungi va ertangi kuni” mavzusida ma'ruza qildi. Ma'ruza materiallarga boyligi va ilmiy asoslanganligi bilan e'tiborga molik bo'ldi. Ma'ruzadan so'ng yuqoridagi mavzu yuzasidan talabalar bilan savol-javob shaklida davra suhbatlari o'tkazildi.

Talabalar o'zlarining yangi g'oyalarini akademik R.D.Matchonov bilan o'rtoqlashishdi va o'zlariga kerakli bo'lgan maslahatlarni olishdi. Tadbir qiziqarli va ko'tarinki ruhda tashkil etildi.



**“Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash” fakulteti ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha  
dekan o'rinbosari Ikrom Raximov axboroti**

**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**